

## **ONA TILI DARSLARINI INTEGRATSIYA USULLARIDA TASHKIL QILISH**

Shaxnoza Mashrabovna Muxtarova

Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasи o‘qituvchisi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti

shaxnoza1977xon@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ona tili darslarini o‘qitish jarayonida integratsiyalashgan darslarda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash masalalari, ona tilini adabiyot fani bilan bog‘lab o‘rgatishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** integratsiya, ona tili, innovatsiya, fanlararo aloqadorlik, adabiyot, integratsion ta’lim.

## **ORGANIZING MOTHER LANGUAGE LESSONS IN INTEGRATION METHODS**

Shaxnoza Mashrabovna Muxtarova

Chirchik State Pedagogical university of Tashkent region

shaxnoza1977xon@gmail.com

### **ABSTRACT**

In this article, the issues of ensuring interdisciplinarity in the integrated lessons during the teaching of mother tongue classes, the specific features of teaching the mother tongue with the subject of literature are highlighted.

**Keywords:** integration, mother tongue, innovation, interdisciplinary, literature, integrated education.

Hozirgi davrda o‘quv fanlarini integratsiyalash mazmunini, rivojlanish tarixini, fanlarni integratsiyalashning shakli usul va vositalarini aniqlash, uning kelajak istiqbolini belgilash - asosiy vazifa bo‘lib turibdi.

Ma'lumki, «Fan» so'zi lotincha «bilim» demakdir. Shu ma'noda fan, o‘tmishda ham, hozirda ham, bir tizimga solingen bilimlar birligi deb tushuniladi. Fan ma‘naviy madaniyatning muhim bir bo‘lagi, insoniyatning eng yuqori shakli, ma’qul metodlar vositasida erishilgan, aniq bayon qilingan, haqiqiyligi ijtimoiy soha tajribasida isbotlangan bilimlar tizimi hisoblanadi. Demak, integratsiya, bu – ayrim bo‘laklarning qo‘silib bir butun bo‘lishidir.

O‘quv fanlarini integratsiyalash, bu turli o‘quv fanlarini sun’iy ravishda bir-biri bilan birlashtirish degan gap emas. Ularni o‘zaro uyg‘unlik, uzviylikni o‘rganish fanlar o‘rtasidagi umumiyo‘xshashlikni, har biriga xos xususiyatni va har birini hayotga tatbiq etish usullarini puxta, aniq bilib olgan taqdirdagina samarali bo‘ladi. Shundagina o‘quvchilarda ilmiy

dunyoqarash shakllanadi, ular mehnat jarayonida, ijtimoiy hayot, tabiatda sodir bo‘layotgan voqeа va hodisalar o‘rtasidagi uyg‘unlik, uzviylikni chuqur anglab oladilar.

Ta’limni integratsiyalashtirish o‘quvchilarda jo‘shqinlik, fanlarni o‘rganishga qiziqish hissini kuchaytiradi, o‘quv fanlari bo‘yicha bilim darajasini oshiradi, ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o‘quv materiallarining o‘zaro, tabiiy ravishda uzviylikda bo‘lishini ta’minlaydi. Darsda o‘quvchilarda ongli qiziqish faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati rivoj topadi: ularda o‘quv faniga nisbatan shaxsiy munosabatda bo‘lish, ijodkorlik hissi shakllanadi. Integratsiyalashtirilgan darsda ta’lim-tarbiya uzviyligi ham bir butun holda amalga oshadi. O‘quv fanlarni uzviylikda o‘rganish o‘quvchilar bilimini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida o‘quv tarbiya jarayonining ham uyg‘unlikda bo‘lishini taqozo etadi. Bilamizki, uzlusiz ta’lim tizimida ona tilini o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi. XXI asr - axborot texnologiyalari asri. Ona tili darslariga noan’anaviy darslarni olib kirish va uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangi-yangi usullarini topish DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi. Shu jihatdan olib qaraganimizda ham ta’lim tizimida ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rgatish darsning samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Ona tili darslari boshqa o‘quv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha u ta’lim bosqichlarida o‘rganiladigan xilma-xil o‘quv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, texnologiya, geografiya, xorijiy tillar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilsa, o‘z samarasini beradi. Chunki ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlik – integratsiya darslarini tashkil etish o‘quvchilarining mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi. Birinchi navbatda, ona tili adabiyot fani bilan bog‘lab o‘rgatiladi. Ona tili va adabiyot darslarini bir o‘qituvchi olib borishi ularni o‘zaro bog‘lab aloqada o‘rgatishga katta imkoniyat yaratadi. Adabiyot so‘z san’ati bo‘lganligi tufayli, ona tilini asosli ravishda anglamasdan turib, o‘quvchilar oldida adabiyotning go‘zalligi va qudratli tarbiya vositasi ekanligini namoyish qilish mumkin emas. Bizningcha, maktab kursida ona tilidan grammatik materiallarni o‘rganish barobarida badiiy matnlarning til xususiyatlarini tahlil qilish 5-11-sinf o‘quvchilarining nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini izchil rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu esa nutq madaniyatining izchil rivojlanishini ham anglatadi. Zero, "...badiiy asar, dastavval, o‘quvchilarining nutq madaniyatini oshirish uchun xizmat qiladi". Bunday nutqqa erishish ona tilining boy imkoniyatlarini egallash zarurligini ham bildiradi.

Badiiy matndagi bir qator qurilmalar, sodda gaplarning qo‘llanishiga xos sintaktik figuralar (sintaktik parallelizm, emotsiional gap, ritorik so‘roq gap, inversiya, sukut, farqlash, o‘xshatish) nutqning jonli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu til hodisalari fikrning sikik, lekin to‘liq, teran yoritilishiga yordam beradi, gap orqali yetkazilayotgan asosiy ma’no-mazmunni kuchaytirib ifodalaydi, kitobxonni tasvir obyektlari bilan kengroq tanishtirish, qahramonning ruhiy holatini voqelikning haqqoniyligiga ishontirish uchun xizmat qiladi.

Nutqiy rivojlanishga xos ushbu sifatlar ona tilini adabiyot bilan badiiy matn vositasida integratsiyalash, ya’ni adabiyot darslarida badiiy tasvir vositalari va she’riy san’at turlari yuzasidan olingan nazariy ma’lumotlardan, egallangan ko‘nikma va malakalardan ona tili darslarida foydalanish yo‘li bilan ham yanada oshiriladi. Bunday integratsiyalashning samarali bo‘lishi uchun ta’lim mazmuniga tuzatishlar kiritish, adabiy tushunchalarni kiritish davri va

bosqichlarini lingvistik tushunchalarni o‘rganish davri va bosqichlariga moslashtirish zaruriyati tugiladi.

Abu Rayhon Beruniyning bir fandan boshqasiga o‘tib turishning ahamiyati haqidagi fikrini fanlararo integratsiyaga ham bog‘lash mumkin: "... O‘quvchi fandan fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u kishi "Har bir yangi narsada o‘ziga yarasha lazzat bor" deyilganidek, ularni ko‘rishga qiziqadi va ko‘zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi". Badiiy matnlarni o‘rganishga bo‘lgan bunday yondashuv til va adabiyot integratsiyasini yuzaga keltirib, o‘quvchilarining lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda adabiyot darslari amaliy laboratoriya vazifasini bajaradi.

7-sinf “Ona tili” darsligida “Boburnoma-memuar asar” nomli mavzu berilgan. Ushbu mavzu orqali o‘quvchilar memuar asar haqida tushunchaga ega bo‘lish bilan birga matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tabdilini juftlashtirib yozish orqali lug‘at boyliklarini oshiradilar. Bobur siyoshi haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

8-sinf “Ona tili” darsligida grammatik mavzular bilan bir qatorda mumtoz matnlar asosida nutqiy mavzular berilgan. “Talab vodiysi”, “Alisher Navoiy”, “Bir sahifa sharhi”, “Tilshunos va qayiqchi”, “Hilm nima?”, “So‘z chamanida zamona va tavorix”, “Behuda so‘zdan sukul afzal”, “Donishmand ustoz”, “Ulug‘bekning shogirdi” nomli matnlar orqali o‘quvchilar mumtoz matnlar sharhi va eskirgan so‘zlar izohi bilan ishlaydilar. Shuningdek, matnlar mazmuni tarbiyaviy jihatdan kata ahamiyatga ega.

Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning fikr tarbiyasi haqida gapirib, dars va tarbiya xususida aytgan kuyidagi ta’kidini keltirish o‘rinlidir: “Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”. Lingvistik bilimlar ustida ishslash dars bo‘lsa, nutq madaniyatini takomillashtirish ham ta’lim, ham tarbiyadir. Ona tili darslarida faqat grammatikaning o‘zini o‘rganish bilan cheklanib qolish to‘g‘ri bo‘lmashagini Abdulla Avloniyning yuqoridagi so‘zlaridan ham bilish mumkin.

Ma’lumki, “Ona tili” darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalari: maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar, hikoyatlar, dostonlardan parchalar hamda badiiy asarlardan olingan ayrim gaplar ham ko‘plab keltiriladi. O‘quvchilarining obrazli fikrashi badiiy asarlar mutolaasi jarayonida borib, shu asosda nutq o‘stirish orqali sayqallanib boradi. Ular badiiy asardan olingan kichik parchani o‘qib, so‘z va grammatik vositalardan obraz yaratish usullariga, g‘oyaga tomon boradilar, so‘zlar va so‘z shakllari, ifoda vositalari orqali muallif fikrini to‘g‘ri anglashga erishadilar. Badiiy so‘z go‘zalligini qadam-baqadam kashf etib boradilar. Bu esa o‘quvchilarini malakali kitobxonga aylantiradi va bu, o‘z navbatida, badiiy so‘zning ular qalbiga bunyodkorlik ta’siri uchun shart-sharoit yaratadi. Zero, o‘quvchilar badiiy matnning til xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo‘lishdan tashqari, tinglovchida biror ruhiy holat paydo etishdan iborat nutqiy tasir ko‘rsatishning lisoniy shakllaridan xabardor bo‘la borishlari, ibrat olishlari kerak. Aytilajak fikr, tasvirlanayotgan predmet yoki ruhiy holatni obrazli ifoda eta oladigan so‘z va iboralarni topa bilish yozuvchining mahoratiga bog‘liq bo‘lib, yoshlar uchun yaxshigina saboq bera oladi.

Yuqori sinfda badiiy asarning tili o‘rganilayotganda uslubiy tahlil mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Uslubiy tahlilda asarning g‘oyaviy mazmunini ifodalovchi til vositalari aniqlanadi, muallifning

so‘z tanlash, gap tuzish mahorati ko‘zdan kechiriladi. Turli asarlar bo‘yicha mustaqil mashg‘ulot olib borilar ekan, o‘quvchilarda yozuvchining so‘z tanlash va so‘zlarni o‘zaro bog‘lash usullari, shuningdek tinish belgilaringning ishlatalishi aniqlanadi. Ona tili darslarini adabiyot bilan uyg‘unlikda olib borish, o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi. Aynan ona tilida biron bir nazariy ma’lumot o‘rganilayotgan bir paytda o‘quvchilarga aynan shu damda adabiyotdan o‘tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish, ruboiy, g‘azallardagi so‘zlarni til nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o‘rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ona tili darsi bilan bilan adabiyot darsini integtasiyalashtirish jarayonida har ikkala fanga tegishli bo‘lgan savol bilan murojaat qilamiz, natijada o‘quvchi ikkala fandan ham o‘tganlarini takrorlab oladi va qo‘srimcha o‘zi bilganlarini ham ifoda etadi. Bunday maqsadni amalga oshirihda bizga interaktiv metodlarimiz yordam beradi. Qo‘yilayotgan muammo har ikkala darsga taalluqli bo‘lishi lozim. Darsda integratsion texnologiyani qo’llash jarayonida foydalaniladigan metod va vositalarning xilma-xil bo‘lishini ta’minlash integratsiyalashgan darslarni yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi. Darsslarning sifat samaradorligi oshadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini adabiyot bilan uyg‘unlikda olib borish, o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi. Aynan ona tilida biron bir nazariy ma’lumot o‘rganilayotgan bir paytda o‘quvchilarga aynan shu damda adabiyotdan o‘tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish, ruboiy, g‘azallardagi so‘zlarni til nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o‘rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatlarini yanada oshirishga, oliy ta’limda tahlil yuzasidan bilim, ko‘nikma, malakalar bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, til bo‘yicha nazariy ma’lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.

**REFERENCES:**

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T: O‘zbekiston, 2017.
2. Ta’lim jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash. R.Jo‘rayev, A.Zunnunov. “Sharq” nashriyoti - Toshkent – 2015.
3. Djurayev R. H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: 2010.
4. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2010.
5. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 7-sinfi uchun. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Shokir Tursun, Hakimova N., Siddiqov M.– Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
6. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 8-sinfi uchun. M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Toshkent – 2019.
7. Nurmonov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-T. “Ilmi ziyo». 2010.
8. Matupaeyva, S. Z. (2022). Ta’lim klasteri sharoiti inkyuziv ta’lim samaradorligini oshirishning innovatsion omili. Maktab va hayot, 6(170), 17-18.
9. Матупаева, III. З. (2019). Инновационные методы обучения в начальной школе. Гуманитарный трактат, (61), 81-83.

10. Tashmukhamedova, G. K. (2022). Development of students'creativity on the basis of solving problem-creative tasks. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1193-1194.
11. Yuldashevich, K. A. (2022). Steam integrated educational technology in enhancing eco-learning effectiveness. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(11), 01-05.